

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI O'QITISHDA LEKSIK KOMPETENSIYANI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xoliyorov Bunyod Husanovich

Qarshi davlat texnika universiteti,

Xorijiy tillar kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: bunyodkholiyorov1985@gmail.com; Telefon: +998945263885

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20372952>

Kirish. Maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitishda eng muhim omillardan bir bu leksik kompetensiya hisoblanadi. Sababi o'zi egallamoqchi bo'lgan sohasida ingliz tilida ishlatiladigan terminlarni, muloqot muhitini puxta egallashni istagan har bir talaba uchun leksik minimumni rivojlantirish ko'p jihatdan kompetensiyaviy yondashuvni talab qiladi. Har qanday fanni o'qitishning eng katta muammolaridan biri bu kursni loyihalashdir.

Asosiy qism. ESP talabalari boshidanoq o'zlarining maqsadlari aniq belgilanganligi va bu ularning amaliy, kasbga yoki kasbga yo'naltirilgan ehtiyojlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lganligi sababli, o'qituvchilar kursni loyihalashtirishda materialni to'g'ri tanlashlari kerak. Nazariy jihatdan bu qadar murakkab bo'lmasligi lozim[1]. Biroq, aslida vaziyat boshqacha. Devid Karver fikriga ko'ra, ESP kursi uchta elementga asoslangan bo'lishi kerak; birinchidan, u haqiqiy materiallarni taklif qilishi kerak, keyin maqsad bilan bog'liq yo'nalishni talab qiladi, keyin u maqsadga yo'naltirilganlikni talab qiladi, ya'ni amaliyotchilar real vaziyatlarni takrorlaydigan kommunikativ vazifalarga jalb qilinishi mumkin bo'lgan voqelikning oqilona simulyatorining majburiy ekanligini anglatadi. Eng so'nggi, ammo eng muhimi shuki, u o'z-o'zini yo'naltirish bilan tavsiflanishi lozim, ya'ni o'rganuvchilar faol foydalanuvchilarga aylanishlari zarur[2].

Kursni ishlab chiqish jarayonida muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan barcha sohalarni qamrab olish uchun ESP o'qituvchisi keyingi ishlanmalar uchun muhim ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida ba'zi savollar berishga va sohada ma'lumot to'plashga tayyor bo'lishi kerak.

So'rovlar quyidagicha amalga oshiriladi:


- Talabalar **nima uchun** o'rganishlari kerak?
- Jarayonda **kimlar** qatnashadi (o'qituvchilar, talabalar, homiylar, soha mutaxassislari va boshqalar)?
- Ta'lim jarayoni **qayerda** o'tkaziladi? Joylashuv qanday imkoniyatlar yaratadi yoki qanday cheklovlar qo'yadi?
- Bu **qachon** amalga oshiriladi? Hisobga olinishi kerak bo'lgan vaqt chegarasi mavjudmi?
- Talabalar **nimani** o'rganishi lozim? Berilgan sharoitda tilning qaysi jihatlari ko'proq mos keladi?
- O'rganish jarayoni **qanday** amalga oshiriladi, ya'ni qo'llanilishi mo'ljallangan metodologiyani qo'llab-quvvatlash uchun qanday nazariy asos tanlanadi?[3]

Agar biz ushbu elementlarni tahlil qilish maqsadida ajratib ko'radigan bo'lsak, hozirgi kunda ESP o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va muammolarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakligi haqidagi xulosaga kelishimiz mumkin.

Hozirgi kunda o'qituvchilar o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ko'plab tayyor darsliklar bilan to'qnash kelmoqdalar. Garchi bu darsliklar o'qituvchilarni autentik materiallarni izlash tashvishlaridan xolos etish maqsadida yaratilgan bo'lsa-da, ular o'qituvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ular o'qituvchilarga o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan faoliyatlarni tanlash imkoniyatini beradi, biroq shu bilan birga ularni nashr etilgan darsliklarning "qullari"ga aylanishga majbur qiladi.[4] Resurslarning bu qadar ko'pligi o'qituvchilarning

o'quvchilarning bevosita muhiti va o'ziga xos ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda o'z kurs mazmunini yaratishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi[5]. Shuning uchun tayyorlanayotgan o'quv adabiyotlar asosiy uslubiy manba bo'lib qolmay, u ma'lum miqdorda pedagoglarga fan mazmuniga mos bo'lgan boshqa kerakli materiallar uchun yo'riqnoma bo'lmog'i lozim. Afsuski, bugungi kunda yuqoridagidek uslubiy manbaga qaramlik, yangi materiallar ustida ijodiy izlanuvchanlikning kamligi ta'lim samarasiga salbiy hissa qo'shmoqda.

O'qituvchilar o'z materiallarini yozishni yoki loyihalashni boshlaganda, e'tiborga olinishi lozim bo'lgan to'rtta asosiy element - ma'lumotni kiritish, kontentga murojaat, til yo'nalishi va topshiriqdir. Quyidagi chizmada (1-rasm) ushbu elementlarning bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatishi va o'rgatilishi kerak bo'lgan tilning turli jihatlarini qamrab oluvchi asosni yaratishga qo'shgan hissasi ko'rsatilgan:



1-rasm. Materiallarni loyihalash modeli.

Kiritilgan ma'lumot matn, dialog, ovozli yoki video yozuv shaklida bo'lishi mumkin. Kontent o'qituvchi va talabalar ishlayotgan ma'lumot va mavzuni o'z ichiga oladi. Til esa ma'lumotni uzatishni osonlashtiradi va talabalarning chet tilini bilish darajasiga mos kelishi lozim. Topshiriq shunday ishlab chiqilishi kerakki, u o'rgatilishi kerak bo'lgan mazmunni amalda qo'llash imkoniyatini bersin [6].


Natija va mulohazalar. Ko'rsatilgan elementlardan shuni tushunish mumkinki, dars materiallarini shakllantirishda eng avvalo tarkibiy qismlarni chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq. Kontent, ya'ni talabalarga taqdim etilayotgan material haqida umumiy tarzda aytib o'tilganiga qaramay, bu jarayonga ijodiy yondashuv o'qituvchining zimmasiga yuklanishini esda saqlash lozim. Kontent leksik kompetensiyani maksimal rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi ESP kursi uchun muhim ahamiyatga ega.

Autentik materiallarni ham o'quv jarayoniga tatbiq etishda bir qancha potensial muammolar yuzaga kelishini oldindan hisobga olish lozim. Chunki, autentik material real hayotga tegishli jism, organik, kimyoviy jihatdan nomaqbul yoxud filtrlanmagan media shaklida bo'lishi mumkin. Buni xuddi tibbiyot ta'lim muassasalarining amaliy mashg'ulotlarida talabalarning turli tibbiy ekspertiza, ekskumatsiya muassasasi yoxud shifoxonalarga tashrifi bilan qiyoslash mumkin. Ma'lumki, ushbu jarayonlarga talabalarni jalb etishdan maqsad ularni kelgusi kasbiy hayotlariga tayyorlash, muhitni his qilish, jarayonni ko'zlari bilan ko'rish va ko'nikma hosil qilish uchun amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Biz mazkur amaliy mashg'ulotlarni shubhasiz sof va autentivlik

xususiyati singdirilgan manbalar bilan olib borish uchun yaqqol namuna sifatida keltirishimiz mumkin. Ta'lim jarayonining bu tarzda tashkil etilishi kelajakda bo'lg'usi shifokorlarga inson hayotini saqlab qolishdek muqaddas vazifani bekamuko'st uddalashlariga zamin yaratishi shubhasiz. Xuddi shu kabi, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishda ham shunga o'xshash materiallardan foydalanib leksik kompetensiyani rivojlantirish masalasi tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Lekin mazkur jarayonlarda ham e'tiborga olinishi lozim bo'lgan holatlar hamda potensial munozarali, muammoli vaziyatlar bo'lishi tabiiy hol.

Autentik materiallarni saralashda ham potensial munozarali kontentlarga duch kelish tabiiy hol. Mazkur muammoli kontentlarni autentik videomateriallarda ko'proq uchratish mumkin. Sababi, autentik videomateriallar ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri videoplatformalardan yuklab olingani sababli ularda nomaqbul sahnalar uchrashi mumkin.

Gareis ko'p madaniyatli muhitda qaysi videolarning qanday talabalar guruhlar uchun mos kelishini aniqlashda o'qituvchilarga yordam berish maqsadida qo'shimcha ko'rsatmalar taqdim etishga e'tibor qaratgan(2-rasm).



2-rasm. Autentik videolarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashda inobatga olinadigan mezonlar

U videolarni tanlashda o'qituvchilar talabalar guruhining bir nechta jihatlarini hisobga olishlari lozimligini ta'kidlaydi. Avvalo, u o'qituvchilarga talabalarning yosh darajasini baholashni tavsiya etadi. Aslida, ba'zi materiallar yoshi va yetuklik darajasi mazmuni tushunishga tayyor bo'lgan talabalar guruhlariga ajratilishi kerak. Bundan tashqari, u o'qituvchilarga mavzuning madaniy ahamiyatini hisobga olishni tavsiya etadi. Gareis (1997) fikriga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilar uchun ahamiyatsiz yoki tarixiy va geografik uzoqlik tufayli tushunish qiyin bo'lgan madaniyat jihatlarini aks ettiruvchi videolardan foydalanishdan qochishlari lozim. Shuningdek, u ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qituvchi materiallarni tanlashda o'z o'quvchilarining madaniy va diniy kelib chiqishini inobatga olishlarini taklif qiladi (Gareis, 1997)[7].

Xulosa sifatida aytsak, biz ingliz tilini o'rgatadigan muhitda ko'p millatli auditoriya kam uchrasada, o'zbek mentaliteti, dini hamda tili o'rganilayotgan davlatning o'rtasidagi madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda autentik videokontentni saralash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Xorijiy autentik videokontentlarda chekish va spirtli ichimliklar bor sahnalar odatiy deb qaralsa, bizning milliy ta'lim tizimimizda bu kontentlar salbiy baholanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A Fălăuș. The current challenges of teaching ESP IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 200 (2017) 012059 doi:10.1088/1757-899X/200/1/012059. Romania. P-3;
2. Bojović M . Teaching foreign languages for specific purposes: Teacher development, The proceedings of the 31st Annual Association of Teacher Education in Europe, 2006. pp 487-493
3. Hutchinson T and Waters A 1987 English for Specific Purposes. A learning-centred approach, Cambridge University Press, Cambridge, UK,
4. Anthony L. *Defining English for Specific Purposes and the Role of the ESP Practitioner*, <http://www.laurenceanthony.net/abstracts/Aizukiyo97.pdf> , 20 Nov 2016.
5. Brunton M 2009 An account of ESP – with possible future directions, *English for Specific Purposes* **24**(3)
6. Hutchinson T and Waters A 1987 *English for Specific Purposes. A learning-centred approach*, Cambridge University Press, Cambridge, UK.

